

COVID-19 KORONAVIRUS INFEKSIYASI KASALLIGI PANDEMIYASI

Dilmurodov G'ofurjon Shavkat o'g'li
Samarqand Davlat Universiteti magistranti
gofujondv97@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Covid-19 koronavirus infeksiyasi kasalligi pandemiyasining kelib chiqish tarixi, dunyoda, O'zbekistondagi holatlar, Koronavirusni oldini olish chora-tadbirlari, yuqitirib olish xavfini kamaytirish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: COVID-19 koronavirusi, infeksiya, kasallik, pandemiya, tarixi.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация об истории пандемии коронавирусной инфекции Covid-19, ситуации в мире, в Узбекистане, мерах профилактики коронавируса, способах снижения риска заражения.

Ключевые слова: коронавирус COVID-19, инфекция, заболевание, пандемия, история.

ABSTRACT

The article provides information on the history of the pandemic of Covid-19 coronavirus infection, the situation in the world, in Uzbekistan, measures to prevent the coronavirus, ways to reduce the risk of infection.

Keywords: COVID-19 coronavirus, infection, disease, pandemic, history.

KIRISH

COVID-19 pandemiyasi — SARS-CoV-2, ya'ni og'ir o'tkir nafas olish sindromi koronavirusi keltirib chiqaradigan COVID-19 koronavirus infeksiyasi kasalligi pandemiyasi. Ilk marotaba 2019-yilning dekabrda Xitoyning Uxan shahrida qayd etilgan kasallik 2020-yilning 11-martida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan pandemiya deb belgilandi. Koronavirus kelib chiqishini o'rganayotgan mutaxassislar, xastalikning laboratoriyadan chiqqani haqidagi taxmini rad etdilar. Tadqiqot jarayoni uchun asos bo'lib xizmat qilgan ma'lumotlar esa Xitoylik hamda xorijlik olimlarning birgalikdagi izlanishlari natijasida to'plangan. Yakuniy xulosalar e'lon qilinishining kechikishiga esa ekspertlar o'rtasidagi taxminiy kelishmovchiliklar sabab emasligi qayd etilgan. 1-sentabr 2021-yilga qadar virusni 192 dan oshiq mamlakat va hududda

yashovchi 218 milliondan ortiq odam yuqtirdi; 4 520 000 dan oshiq odam kasallik tufayli halok bo'ldi, 195 milliondan oshiq odam esa tuzaldi. Xitoy, Yevropa, Eron, Janubiy Koreya va AQShda pandemiya o'choqlari yuzaga keldi. 2019–2020-yillardagi koronavirus pandemiyasini keltirib chiqardi. Kasallik yuqori harorat, yo'tal hamda nafas olishni mushkullashishi kabi simptomlarni keltirib chiqaradi. Ayrim holatlarda mushaklar og'rishi, balg'am ajralishi hamda tomoq og'rishi kuzatiladi. Virus yuqtirganlarning aksarida yengil simptomlar yuzaga kelsada, ayrim bemorlarda kasallik og'ir pnevmoniya hamda bir necha organ faoliyatining ishdan chiqishiga olib keladi. Tashxis qo'yilgan holatlar orasida o'limlar ko'rsatkichi o'rtacha 3,4 foizni tashkil qiladi. 20 yoshga to'lmaganlar orasida bu ko'rsatkich 0,2 foizni, 80 yoshdan o'tganlar orasida 15 foizni tashkil qiladi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

COVID-19 koronavirus infeksiyasi odatda shaxsdan-shaxsga yo'tal va aksa berish davomida chiqariladigan tomchilar orqali yuqadi. Virusni yuqtirgandan keyin kasallik simptomlari yuzaga kela boshlagunicha o'rtacha 5 kun o'tadi. Bu davr 2 kundan 14 kungacha davom etishi mumkin. Tashxis qo'yishning standart uslubi burun bo'shlig'i yoki tomoqdan olingan suyuqlikni teskari transkripsiyali polimeraza zanjiri reaksiyasi (inglizcha: Reverse transcription polymerase chain reaction (rRT-PCR)) yordamida tekshirishdan iborat. Shuningdek, bemorga simptomlar hamda pnevmoniya belgilarini aniqlash uchun kompyuter tomograf yordamida tashxis qo'yish mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti SARS-CoV-2 koronavirusi ko'rshapalaklardan odamga boshqa hayvon orqali yuqqan paytda paydo bo'lganini ma'lum qildi. Tadqiqotchilar koronavirus paydo bo'lishi bilan bog'liq 4 ta taxminni ehtimollik ko'rsatkichi bo'yicha ro'yxatlarini keltirishgan. Ularning orasida koronavirusning ko'rshapalaklardan odamga boshqa hayvon orqali yuqqan paytida paydo bo'lganligiga asosiy e'tibor qaratilgan. Virusning ko'rshapalaklardan odamlarga to'g'ridan-to'g'ri uzatilishi nisbatan past darajada baholangan bo'lsa, oziq-ovqat hamda laboratoriyadan tarqalish taxmini ehtimoldan yiroq qarash sifatida qayd etilgan. COVID-19 ni keltirib chiqaradigan virusning eng yaqin qarindoshi ko'rshapalaklardan topilgan. Ammo, hisobotda aytilishicha, ko'rshapalaklarda aniqlangan viruslar va SARS-CoV-2 o'rtasidagi evolyusion masofa bir necha o'n yilliklarga teng bo'lib, bu, o'z navbatida, virusning ulardan tarqalmaganini ko'rsatadi. Agentlikning alohida qayd etishicha, tadqiqot natijalari kutilganidek bo'lib chiqqan va ko'plab savollarni javobsiz qoldirgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mutaxassislar guruhi „laboratoriyadan kelib chiqish“ haqidagi farazdan tashqari barcha taxminlar borasida qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazishni taklif qilgan. Kasallik tarqalishi oldini olish maqsadida sayohat qilishni cheklash, karantin, komendantlik soati, tadbirlarni keyinga qoldirish va bekor qilish hamda muassasalarni yopish kabi choralar ko‘rildi. Xususan, virus tarqala boshlagan Xitoyning Xubey provinsiyasi karantinga olindi. Italiya, Ispaniya, Fransiya, Chexiya va Germaniyada mamlakat bo‘ylab karantin joriy qilindi. Xitoy va Janubiy Koreyada komendantlik soati joriy qilindi. Turli mamlakatlarda chegaralar yoppasiga yopildi yoki sayyohlarga qarshi cheklovlar joriy qilindi, aeroport va poyezd stansiyalarida nazorat choralari yo‘lga qo‘yildi, virus keng tarqalayotgan hududlarda sayohat qilishga qarshi tavsiyalar e‘lon qilindi. Kamida 115 davlatda universitet va maktablar yoppasiga yoki ayrim hududlarda yopildi, bu choralar 950 milliondan oshiq talaba faoliyatiga ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekistonda virusni yuqtirish holati ilk marotaba 15-mart kuni qayd etildi.

1-rasm



1-rasm.2021-yil Yanvar oyigacha virusni yuqtirganlar soni aks etgan xarita.

1-jadval

Kasallik	COVID-19 koronavirus infeksiyasi
Virus shtamlari	Og‘ir o‘tkir nafas olish sindromi koronavirusi 2 (SARS-CoV-2)
Joylashuv	Jahon miqyosida
Birinchi holat	Uxan, Xubey, Xitoy
Sana	1-dekabr 2019 — hozirgacha [1] Manba [1] "Clinical features of patients infected with 2019 novel coronavirus in Wuhan, China". Lancet 395 (10223): 497–506. February 2020.
Tasdiqlangan holatlar	218 103 709[2]
Faol holatlar	18 180 335[2]
Tuzalish	195 396 563[2]
O‘limlar	4 526 811[2]
Territoriya	192[2] Manba [2] „COVID-19 boshqaruv paneli — Tizim fanlari hamda muhandislik markazi (inglizcha Center for Systems Science and Engineering, qisqartmasi CSSE) (Johns Hopkins universiteti)“. ArcGIS. Johns Hopkins universiteti. Qaraldi: 12-aprel 2021-yil.

2-jadval. O'zbekistonda koronavirusga oid statistika

2021- yil Avgust	Tasdiqlangan holatlar	7 kunlik o'rtacha kun	O'limlar
1.	2676	870	20
2.	899	885	7
3.	923	897	8
4.	951	907	9
5.	974	918	6
6.	0	918	0
7.	0	918	0
8.	2665	916	18
9.	891	915	7
10.	903	912	7
11.	925	909	8
12.	948	905	8
13.	0	905	0
14.	0	905	0
15.	2760	919	17
16.	846	912	6
17.	851	905	7
18.	844	893	8
19.	863	881	6
20.	0	881	0
21.	0	881	0
22.	2554	852	20
23.	807	846	7
24.	834	844	8
25.	846	844	7
26.	841	841	6
27.	0	841	0
28.	0	841	0
29.	2435	824	19
30.	755	816	7
31.	742	803	6

3-jadval. O'zbekistonda koronavirusga oid statistika

2021-yil Sentyabr	Tasdiqlangan holatlar	7 kunlik o'rtacha kun	O'limlar
1.	736	787	5
2.	689	766	6
3.	0	766	0
4.	0	766	0
5.	1950	696	21
6.	597	674	5
7.	660	662	7
8.	653	650	5
9.	687	650	5
10.	0	650	0
11.	0	650	0
12.	1782	626	17
13.	531	617	5
14.	604	609	5
15.	619	604	6
16.	624	595	4
17.	0	595	0
18.	0	595	0
19.	1670	579	13
20.	529	578	5
21.	522	567	6
22.	531	554	4
23.	560	545	5
24.	0	545	0
25.	0	545	0
26.	1413	508	13
27.	406	491	5
28.	510	489	4
29.	486	483	5
30.	513	476	3

4-jadval. O'zbekistonda koronavirusga oid statistika

2021-yil Oktyabr	Tasdiqlangan holatlar	7 kunlik o'rtacha kun	O'limlar
1.	0	476	0
2.	0	476	0
3.	1307	461	7
4.	304	446	2
5.	458	439	4
6.	487	439	5
7.	419	425	3
8.	0	425	0
9.	0	425	0
10.	1254	418	8
11.	349	424	2
12.	385	414	3
13.	340	393	4
14.	451	397	3
15.	0	397	0
16.	0	397	0
17.	1150	383	7
18.	342	382	2
19.	406	385	3
20.	361	388	2
21.	398	380	3
22.	0	380	0
23.	0	380	0
24.	1109	374	6
25.	305	369	3
26.	330	358	3
27.	342	355	4
28.	390	354	2
29.	0	354	0
30.	0	354	0
31.	949	331	7

Yuqoridagi jadvallardan ko'rib turibmizki, O'zbekistonda koronavirusga oid statistika barcha oylarda har xil darajada ko'payib, kamaymoqda. Masalan 2-jadvalda eng ko'p kasallik tasdiqlanganlar holatlar soni 15-avgust kuniga to'g'ri kelmoqda, ya'ni 2760 kishini tashkil etmoqda. O'limlar soni esa, 1 - va 22 - avgust kuniga to'g'ri kelmoqda, ya'ni 20 kishini tashkil etmoqda.

3-jadvalda esa, 5-sentyabrda ya'ni 1950 ta kasallik tasdiqlanganlar soni aniqlangan. O'limlar soni ham 5-sentyabrga to'g'ri kelmoqda, ya'ni 20 kishi.

4-jadvalda kasallik tasdiqlanganlar soni 3-oktyabrga to'g'ri kelmoqda, ya'ni 1307 kishi. O'limlar soni esa, 10-oktyabrga to'g'ri kelmoqda, ya'ni 8 kishini tashkil etadi.

Pandemiya global miqyosda qator ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Sport va madaniy tadbirlar keyinga qoldirilishi yoki bekor qilinishiga sababchi bo'ldi, dori-darmon, elektronika mollari hamda oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligi yuzaga kelishi haqida xavotirlarga sabab bo'ldi. Shuningdek, Internetda virus va pandemiya haqida noto'g'ri ma'lumotlar hamda fitna nazariyalari urchidi, turli mamlakatlarda ksenofobiya va irqchilik holatlari kuzatildi. 2021-yil iyul oyida JSST raisi Tedros Adhanom Ghebreyesus vaksinatsiyalar oqibatida koronavirusning vaksinalarga chidamli shtammi paydo bo'lishi mumkinligini aytdi. **2021-yil 4-noyabr** holatiga ko'ra Dunyo bo'yicha koronavirus yuqtirganlar soni ya'ni tasdiqlangan holatlar soni **247 351 829** tani tashkil qildi. **2022-yil 10-fevralda** esa Dunyoda **403 mln kishi** kasallikni yuqtirgan. Bu ko'rsatgich 2021-yil O'zbekiston bo'yicha ya'ni tasdiqlangan holatlar **187 085** tani tashkil qildi. O'tkan haftadan beri **+0,9 %** ga oshgan. O'lim holatlari esa **1 332** tani tashkil qiladi. Bu esa **+1%** ga oshgan. Ammo, hozirgi kunda, ya'ni 2022-yil fevral oyida bu ko'rsatgich 700 dan oshmadi

Korona virusni oldini olish chora – tadbirlari

Koronavirus butun dunyo bo'ylab tarqalib, misli ko'ril;magan vahima qo'zg'atdi: har kuni minglab yangi infeksiyalanish holatlari va yuzlab o'limlar haqidagi hisobotlar yangramoqda. Koronavirusni oldini olish uchun birinchi navbatda quyidagi 5 ta strategiyaga qat'iy amal qilish lozim bo'ladi:



2-rasm. Koronavirusga qarshi kurashish.

1. Tekshirish;
2. Kasallarni izolyatsiya qilish;
3. Tayyorgarlik va tezkor choralar ko'rish;
4. Ijtimoiy masofa;
5. Gigiyenani targ'ib qilish.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi ya'ni, virusni yuqtirib olish xavfini qanday kamaytirish mumkinligini tadqiqotlar natijasida aniqlandi va ular quyidagilardir:

- Qo'llarni tez-tez va yaxshilab sovun bilan oqar suvda yuvish (buning uchun kir sovun qulayligi aniqlandi) , spirtli dezinfeksiyalovchi vositalardan foydalanish, ovqat qilish davomida hamda undan oldin va keyin, shuningdek, ovqatlanishdan oldin, hojatxonadan yoki hayvon bilan aloqadan keyin qo'llarni yuvish

- Yuzingizni qo'lingiz bilan ko'p ushlamang

- Imkon qadar teatr, kinoteatr, aeroport, vokzal, bozor va katta do'konlar kabi ko'p odam yig'iladigan joylarga borishni kamaytiring. Bozorga borganda hayvonlar bilan bevosita aloqa qilishdan chekining

- Yo'talganda, burun qoqqanda va aksirganda og'iz bilan burunga bukilgan tirsak, yeng yoki salftkani tuting. Undan keyin salftkani darhol axlatga tashlang va qo'lingizni yuvishni unutmang

Shamollash yoki gripp alomatlariga ega odamlar bilan yaqin aloqa qilishdan chekining. Yaqin aloqa deganda bemor bilan ikki metr doirasida, u bilan bir xonada yoki uzoq vaqt mobaynida kasal yuqtirgan bemorga qarash zonasida individual himoya vositalarisiz (xalat, qo'lqop, niqob) bo'lish tushuniladi. Shuningdek, yaqin aloqa bemor bo'lgan xonaga qatnash, kasal yuqtirgan odamdan ajralib chiqqan suyuqlik, masalan, balg'am bilan aloqani o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Clinical features of patients infected with 2019 novel coronavirus in Wuhan, China". Lancet 395 (10223): 497–506. February 2020.
2. „Coronavirus disease 2019“. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti.
3. „Coronavirus Update (Live)—Worldometer“. ncov2019.live.
4. „Coronavirus impacts education“. UNESCO (4-Mart 2020-yil).
5. „Coronavirus Cancellations: An Updating List“, The New York Times (16-Mart 2020-yil).
6. R. Haitov “ Immunologiya” .Toshkent, 1996-yil

7. I. Muhammedov “Tibbiyot virusologiyasi” Toshkent 2012-yil
8. I. Muhammedov, E. Eshboyev, N. Zokrov, M. Zokirov “Mikrobiologiya Immunologiya, Virusologiya”. Toshkent, 2006-yil. 531-532-bet.
9. www.clinicaltrialsarena.com
10. Daryo.uz
11. Zarnew.uz